

## KINONIM TARKIBLI MAQOLLAR

**Xayitbayeva Maxfira Bahodirovna**  
*Urganch innavatsion universiteti o'qituvchisi*

O'zbek xalq maqollarida turli obrazlar orqali ma'no berish an'anasi mavjud bo'lib, shulardan eng muhimlaridan biri — kinonimlar, ya'ni hayvon nomlari asosida yaratilgan obrazlardir. Hayvonlar inson hayotiga yaqin bo'lgani sababli ular orqali inson xarakteri, xulq-atvori va jamiyatdagi munosabatlar ramziy tarzda ifodalanadi. Mazkur ilmiy ishda o'zbek xalq maqollarida uchraydigan kinonimlar, ularning semantik xususiyatlari, lingvokulturologik ahamiyati va tarbiyaviy funksiyalari keng tahlil qilinadi.

Mavzuning dolzarbligi sundaki, o'zbek tilshunosligida xalq og'zaki ijodi, xususan maqollar tarkibidagi kinonimlarning chuqur o'rganilishi bugungi kunda dolzarb masalalardan biridir. Chunki hayvon obrazlari orqali ifodalangan ma'nolar xalqning ko'p asrlik tajribasi, turmush tarzi va axloqiy qarashlarini o'zida mujassam etadi. Kinonimlarning semantik xususiyatlarini o'rganish nafaqat til boyligini ochib berishga, balki milliy madaniyat va mentalitetni chuqurroq anglashga xizmat qiladi. Shu bois ushbu mavzu zamonaviy lingvistika va madaniyatshunoslik nuqtayi nazaridan alohida ahamiyat kasb etadi.

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi o'zbek tilidagi kinonimlar — ya'ni hayvon nomlari asosida shakllangan ibora va maqollarni lingvistik hamda semantik jihatdan tahlil qilishdan iborat. Shuningdek, kinonimlar orqali ifodalangan axloqiy, ijtimoiy va madaniy ma'nolarni aniqlash, ularning xalq tafakkuri va dunyoqarashini aks ettirishdagi o'rnini ochib berish ham tadqiqotning muhim vazifalaridan biridir.

Kinonimlar ishtirokidagi maqollar obrazlilik va ta'sirchanlikni kuchaytiradi. O'zbek maqollarida "it" kinonimi ko'pincha salbiy yoki kinoyaviy ma'noda qo'llanadi.

**"Aravani ot tortar, ko'lankasini it tortar", "Aravani ot tortadi, it hansiraydi".** — Mazkur maqollar bilan quyidagi ma'no ifodalanadi: ot aravani tortib kelsa ham hansiramaydi (ya'ni ish qilganini bildirib o'tirmaydi), uning yonida yoki orqasida bekordan-bekorga chopib kelgan it esa hansiraydi (ya'ni o'zini go'yo hamma ishni bajarib kelganday qilib ko'rsatadi) demoqchi. Quruq maslahat beradigan, ammo uni tuzatishga bevosita ko'maklashmaydigan maslahatchilar chiqib qoladi, demoqchi bo'ladilar. Bu maqol quruq maqtanchoqlarga nisbatan qo'llaniladi.<sup>1</sup>

**"It pohl ustida yotib, yemagay, yedirmagay"** — Xalqimiz baxil, ziqna, xasis, haris, qizg'anchiq odamlarga azaldan yomon nazar bilan qarab kelgan. Ularcha maqollarda

<sup>1</sup> SH.SHomamudov, Sh.Shoraxmedov "Hikmatnoma" O'zbek maqollarining izohli lug'ati

ularning naqadar pastkash kishilar ekanligi, o'zlari birovga bir narsa berish u yoqda tursin, biridan ikkinchisiga bir narsa berishsa ham ichlari achishi, o'lgan - tirilganlariga qaramay mol-dunyo to'plashlari, ammo bu mol-dunyoni birovdan tug'il o'zlaridan ham qizg'anishlari va bunday illatning yomon oqibatlarini ko'rsatiladi:

«It, ulisang o'z boshingga ko'rinsin

«It ulisa, eldan chiqarurlar»

«It, boshingga balo ko'rinsin...»

O'tmishda kishilar ayrim qushlarning sayrashidan xavfsiraganlar, ayrimlarining sayrashini esa qutlaganlar. Masalan, quzgun sayrasa, «qorni, sovuqni tilayapti, bu uning o'z boshigagina so'ragani», deb yo'yar edilar. Zag'izg'on sayrasa esa, «yaxshilik bo'ladi, biror xushxabar keladi, uning sayragani — oila va el boshiga yaxshilik tilagani», deb quvonadilar, «og'zingga moy!» deb, uning sayrashini qutlar edilar. It (osmonga qarab) ulisa, «bir baloni boshlaydi», deb o'ylar edilar va «uliganing (ya'ni, falokat, ...balo-qazo) o'z boshingga ko'rinsin, bizga ko'rinmasin», deb, uni urib-urib hovlidan, ovuldan haydab chiqaradilar. Ov qushi qo'lda hadeb talpinaversa ham «bir balo keltiradi», deb o'ylar edilar.<sup>2</sup>

**Bo'ydokning bo'ynini biy yeydi, topgan-tutganini it yeydi** - Bular bilan: “Uylanmay, turmush qurmay, yolg'iz, so'qqa bosh bo'lib yurma. To uylanmaguncha uyingga baraka kirmaydi, biring ikki bo'lmaydi”, degan ma'noda yigitlarni uylanishga targ'ib qiladilar.

<sup>2</sup> SH.SHomamudov, Sh.Shoraxmedov “Hikmatnoma” O'zbek maqollarining izohli lug'ati

